



E CONF SERIES



International Conference on Scientific Research in Natural and Social Sciences

Hosted online from New York, USA

Website: econfseries.com

2nd May, 2025

YUQORI SINF O'QUVCHILARINI HUQUQIY MUNOSABATLARDA GENDER TENGLIGINI TA'MINLASHNING PEDAGOGIK IMKONIYATLARI

O'ktamov Mirjalol Muzaffar o'g'li
Namangan Davlat Pedagogika Instituti
Pedagogika nazariyasi va tarixi magstranti
e-mail: mirjaloluktamov0@gmail.com

ANNOTATSIYA:

Ushbu maqolada yuqori sinf o'quvchilarini huquqiy munosabatlarda gender tengligini ta'minlash bo'yicha pedagogik imkoniyatlar keng yoritilgan bo'lib, tadqiqotlar jarayonida gender tenglik tushunchasi, huquqiy ong va madaniyatni shakllantirishning pedagogik usullari, o'quvchilar ongida gender stereotiplerini bartaraf etishning zamonaviy yondashuvlarini ham ko'rib chiqilgan. Shu bilan birga, ta'lim jarayonida gender yondashuvning ahamiyati, uning o'quvchilar tarbiyasidagi o'rni va natijalarini o'r ganilgan. Mazkur maqola orqali gender tenglikni ta'minlash bo'yicha samarali pedagogik metodlarni o'r ganib tahlil e'tiladi.

KALIT SO'ZLAR: gender tengligi, huquqiy madaniyat, pedagogik imkoniyatlar, yuqori sinf o'quvchilari, ta'lim tizimi, gender yondashuv, huquqiy ong, stereotipler.

Kirish:

Gender tengligi masalasi nafaqat ijtimoiy hayot, balki ta'lim tizimida ham muhim ahamiyatga ega bo'lib borayotgan muhum omillardan biridir. O'quvchilarning huquqiy madaniyatini oshirish orqali ularni gender tengligi tamoyillariga asoslangan munosabatlarni shakllantirishga yo'naltirish mumkin. Ta'lim jarayonida gender tenglikni ta'minlash orqali nafaqat huquqiy bilim, balki jamiyatda teng huquqli va adolatli munosabatlarni shakllantirishga xizmat qiluvchi shaxslar shakillanadi. Gender stereotiplerini yengib o'tish, ularning ta'lim tizimida qay darajada tarqalganligini aniqlash, shuningdek, o'quvchilarning ongli tanlov qilishiga yo'l ochish bugungi kundagi dolzarb vazifalardan biriga aylanmoqda.

Asosiy qism



E CONF SERIES



International Conference on Scientific Research in Natural and Social Sciences

Hosted online from New York, USA

Website: econfseries.com


2nd May, 2025

Gender tengligi tushunchasi va uning ta'lim tizimidagi o‘rnii haqida fikr yurutadigan bo’lsak. Gender tengligi – erkaklar va ayollarning teng huquqlilagini ta'minlashga qaratilgan tamoyillar yig‘indisi bo‘lib, u shaxslarning jamiyatda o‘z o‘rnini topishida muhim omillar biri hisoblanadi. Ta'lim tizimida esa gender tengligini shakllantirish va mustahkamlash uchun eng samarali maydon esa bu maktab hisoblanadi. Shu sababli, maktab dasturlarida gender yondashuvni inobatga olgan holda yangi pedagogik texnologiyalarni qo‘llash muhim pedagogik omillar sanaladi. Huquqiy madaniyatni shakllantirish orqali o‘quvchilarda inson huquqlari, gender adolati va tenglikka oid bilimlarni mustahkamlashga erishihs mumkin. Buning uchun ta'lim dasturlariga gender masalalarini kiritish, milliy va xalqaro huquqiy hujjatlar asosida gender masalalariga oid bilimlarni chuqurlashtirish, ularning huquqlarini tan olish va hurmat qilish madaniyatini shakllantirish zarur. Gender tenglikni ta'minlash bo‘yicha ta'lim jarayonida quyidagi pedagogik imkoniyatlar mavjud bo‘lib ulardan qay darajada samarali foydalana olish pedagogning bilim tajribasiga bog‘liq jarayon hisoblanadi:

Pedagogik faoliyat jarayonlarida mutaxasislar tomonida Interaktiv usullardan foydalanish orqali o’sib kelayotgan yosh avlodda gender tengligi masalalari va huquqiy madaniyatni shakilantirishga erisha olishlari mumkin. Interaktiv usullar:




Baxs-
munozaralar



Loyihaviy
ta'lim



Tarbiyaviy
tadbirlar



Mediani jalb
qilish

1. Babs-munozara usullari, rolli o‘yinlar orqali gender tengligi mavzusida muamoli vaziyatlar va keyslarga mustaqil fikr yuritish va stereotiplarni tahlil qilish ko’nikmalarini shakillantirish.
2. Loyihaviy ta'lim usuli : Gender tengligi masalalarini yorituvchi ilmiy-tadqiqot loyihalarini amalga oshirish, bu orqali o‘quvchilarning ijtimoiy faoliyklarini qobiliyatlarini rivojlantirish.



E CONF SERIES



International Conference on Scientific Research in Natural and Social Sciences

Hosted online from New York, USA

Website: econfseries.com

2nd May, 2025

3. Tarbiyaviy tadbirlar usuli: umumiy o'rta ta'lim muassasalarida gender tengligi mavzusida tadbirlar va seminarlar o'tkazish, gender tengligi mavzusida mashhur shaxslarning hayoti va faoliyati bilan tanishtirish.

4. OAV va televdiniya : Gender tengligi bilan bog'liq hujjatli filmlar, intervylular va maqolalarni o'quvchilarga taqdim etish.

O'quvchilarning gender stereotiplariga bo'lgan qarashlarini o'zgartirish orqali ularni ijtimoiy huququiy madaniyatini rivojlantirish. Rivojlangan davlatlarda gender stereotiplari uzoq yillar davomida shakllangan. Ta'lim tizimi esa o'quvchilarning bu stereotiplarga bo'lgan munosabatini o'zgartirishda muhim rol o'ynaydi. Maktab o'quv dasturlarida gender tengligi bo'yicha maxsus kurslar, davra suhbatlari va loyihalar kiritilishi zarur. Ijtimoiy jamiyat

Olib borilgan tadqiqotlarni va olimlarni fikr muloxazalari bilan tanishadigan bolsak. Vygotskiy (1986) – o'z tadqiqotlarida madaniy-tarixiy rivojlanish nazariyasi orqali shaxs shakllanishining ijtimoiy omillarini ta'kidlaydi. Bandura (1977) - ijtimoiy ta'lim nazariyasi asosida gender stereotiplarning shakllanishini tushuntiradi. Noddings (2013) - ta'limda g'amxo'rlik va gender yondashuv muhim ekanligini ko'rsatadi. Beauvoir (1949) - "Ikkinchi jins" asarida gender tengligi masalasini chuqur tahlil qilgan. Connell (2009) – esa o'z qarashlarida gender nazariyasi bo'yicha erkak va ayollarning ijtimoiy rollari haqida ilmiy yondashuvlar bildirgan. Bu kabi tadqiqotlar ijtimoiy jamiyatda huquqiy erkinlik va burchlarni anglay olishda va yaratilgan imkoniyatlardan o'rini foydalana olishni taqazo etadi.

Xulosa Yuqori sinf o'quvchilarini gender tenglik masalalarida huquqiy ong va madaniyatini oshirish pedagogik jarayonning muhim yo'nalishlaridan biridir. Ta'lim tizimida gender tenglikni targ'ib qilish orqali o'quvchilarning adolatli va teng huquqli jamiyatni shakllantirishga hissa qo'shishlari mumkin. Interaktiv usullar va pedagogik yondashuvlar yordamida gender tenglikni ta'minlash bo'yicha samarali natijalarga erishish mumkin. Shu bilan birga, ta'lim muassasalari pedagoglari va jamiyatning boshqa a'zolari ham gender tengligi masalasida yetarli bilimga ega bo'lishi, o'quvchilar uchun bo'lishi lozim.



E CONF SERIES



International Conference on Scientific Research in Natural and Social Sciences

Hosted online from New York, USA

Website: econfseries.com

2nd May, 2025

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Yusubxonovna, SS (2022). TA'LIM JARAYONIDA DIDAKTIK O'YINLARDAN FOYDALANISHNING NAZARIY ASOSLARI. *PEDAGOGS jurnali*, 24 (1), 84-87.
2. Mirjalol Muzaffar O'g'li O'ktamov, Saodat Usubxonovna Sulaymanova Inklyuziv talimning joriy qilinishi va uning amaliy ahamiyati // Science and Education. 2024. №2. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/inklyuziv-talimning-joriy-qilinishi-va-uning-amaliy-ahamiyati> (дата обращения: 06.04.2025).
3. Usubxonovna, S.S. (2025 yil, mart). ANIMATSIY RESURSLARDAN FOYDALANISHNING AN'anaviy O'QITISh USULLARIGA QO'YILGAN AVTOZYATLARI. *Tabiiy va ijtimoiy fanlar bo'yicha ilmiy tadqiqotlar bo'yicha xalqaro konferensiyada* (35-39-betlar).
4. Abduqodirov, A. A. O. G. L., & Kamolova, A. O. Q. (2025). Muzeylarning inson ongiga ta'siri va ijtimoiy roli. *Science and Education*, 6(3), 191-194.
5. Azimaxon, K. (2025). Professional Health of Teachers as A Key Factor in The Development of Modern Education. *European International Journal of Pedagogics*, 5(01), 121-124.
6. Oribboeva, D. D. (2024). PSIXOLOGINVISTIKA VA LINGVISTIK KOMPETENSIYA. *Academic research in educational sciences*, 5(CSPU Conference 1), 346-349.
7. Oriboeva, D. D. va Rafiqova, R. A. (2024). O'zbekiston Respublikasida inklyuziv ta'limni amalga oshirishning xususiyatlari. *Fan va ta'lim*, 5 (6), 290-293.
8. Dilshoda, I., & Oribboeva, D. D. (2024). ALALIYA NUTQ NUQSONLARI VA UNING TURLARI. *Yangi asr innovatsiyalari jurnali*, 63 (3), 70-73.
9. Ahmadjonova, D., & Kamolova, A. O. Q. (2025). Neyrografika mashg 'ulotlari orqali ongosti muammolarini yechish va maqsadga erishish usullari tadqiq etish. *Science and Education*, 6(3), 355-360.
10. Sulaymonova, S. (2024). M.A.Rasulzoda Milliy o'zlikni izlashda: Milliy mafkuraning turkiylikdan ozarbayjonlikkacha rivojlanishi. *Tarixiy tadqiqotlar jurnali*, 2 (1), 5-17.